

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 339 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолiddин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB Olishda qo'llaniladigan qurilmani loyihalash	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
ТЕМИР YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FONDLARDAN VA ISHLAB CHIQUVISH QUVVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	



UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI

Boboqulov S.B.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

"Raqqamli iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, PhD

Email: sanjar.bobokulov02@gmail.com

ORCID 0000-0002-1882-1507

Annotatsiya. Maqolada uy-joy kommunal xizmatlarini ko'rsatishda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion usullarining ahamiyati o'rganilgan. An'anaviy xizmat ko'rsatish tizimlarining samaradorligi va ularning kamchiliklari tahlil qilinib, zamonaviy raqqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimlari, aqlli uy tizimlari va mobil ilovalar orqali xizmat sifatini oshirishning yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, aholining turmush darajasini yaxshilash va kommunal resurslarni samarali boshqarish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: uy-joy kommunal xizmatlari, zamonaviy texnologiyalar, avtomatlashtirish, aqlli uy tizimlari, raqqamli hisob-kitob.

Abstract. The article examines the importance of modern technologies and innovative methods in the provision of housing and communal services. The effectiveness of traditional service systems and their shortcomings are analyzed, and ways to improve service quality through modern digital technologies, automated payment systems, smart home systems, and mobile applications are shown. At the same time, recommendations were given on improving the standard of living of the population and effective management of utilities.

Keywords: housing and communal services, modern technologies, automation, smart home systems, digital accounting.

Аннотация. В статье рассматривается значение современных технологий и инновационных методов в предоставлении жилищно-коммунальных услуг. Проанализирована эффективность традиционных систем обслуживания и их недостатки, показаны пути повышения качества обслуживания за счет современных цифровых технологий, автоматизированных систем расчетов, систем умного дома и мобильных приложений. При этом даны рекомендации по повышению уровня жизни населения и эффективному управлению коммунальными ресурсами.

Ключевые слова: жилищно-коммунальные услуги, современные технологии, автоматизация, системы умного дома, цифровые расчеты.

KIRISH

Uy-joy kommunal xizmatlari elektr energiyasi, gaz, issiqlik, suv ta'minoti va chiqindilarni yig'ish kabi aholi hayoti uchun muhim xizmatlarni qamrab oladi. O'zbekistonda mazkur soha izchil rivojlanib borayotgan bo'lib, xizmatlar sifatini yaxshilash va boshqaruv samaradorligini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Mavjud tizimni zamonaviy tashkiliy va texnologik yondashuvlar asosida takomillashtirish orqali resurslardan oqilona foydalanish va xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.04.2017 yildagi "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5017-son¹ Farmonida belgilangan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi aholini sifatli kommunal xizmatlar bilan qamrab olishni kengaytirish, boshqaruv mexanizmlarini mustahkamlash va sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilishi prognoz qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar sohasini yanada kengaytirish maqsadida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishning zamonaviy yo'llarini belgilashga oid ko'plab adabiyotlar tahlil qilingan. Xususan, O. Skripnik "Increase in competitiveness of housing-and-communal services" [2] nomli maqolada uy-joy va kommunal xizmatlar sohasining samarali faoliyatiga va raqobatbardoshligini oshirishga to'sqinlik qiluvchi muammolar ko'rib chiqilgan. Uy-joy va

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-3170224>



kommunal xizmatlar sohasidagi tashkilotlarning raqobatbardoshligini baholash quyidagi asosiy elementlar to'plami sifatida ko'riladi: tashkiliy va ma'muriy, marketing, moliyaviy, ishlab chiqarish, sifat ko'rsatkichlari, rivojlanish ko'rsatkichlari, shuningdek, tashkilot jarayonlari bilan bog'liq mehnat ko'rsatkichlari. Olimlarning ta'kidlashicha, raqobatbardoshlikni oshirish tashkiliy va ma'muriy, innovatsion, texnologik va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, xizmat sifatini yaxshilash, xizmatlarni ishlab chiqarish va realizatsiya xarajatlarini kamaytirish hamda yangi xizmatlarni taqdim etish orqali erishish mumkin.

A. Mottaeva va A. Borisova "Improvement of quality of housing-and-communal services management" [3] nomli maqolasida Rossiyada uy-joy-kommunal xizmatlar tizimining barcha darajalarida boshqaruv sifatining pastligi, ushbu sohani boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarining yetarlicha o'rganilmaganligi, shuningdek, inqirozdan chiqish va keyingi rivojlanishni ta'minlash maqsadida boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqish zarurati bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Natijada Rossiya Federatsiyasining mintaqaviy va shahar hokimiyatlari tomonidan standart huquqiy yordam, uy-joy qurilishini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda, shuningdek, ularni boshqarish samaradorligini baholash usullarini tanlashda va boshqaruv sifatini yaxshilash choralari ishlab chiqish yo'llari ilgari surilgan.

Shu bilan birga, U. Shalbolova, Z. Chikibayeva va boshqalar "Housing and communal services as a factor of the urban sustainability" [4] nomli maqolada uy-joy-kommunal xizmatlarning shahar barqarorligiga ta'sirini yoritib bergan. Shuningdek, aholining yashash qulayligi darajasi uchun uy-joy-kommunal xizmatlarni takomillashtirish va modernizatsiya qilish bilan bog'liq shahar barqarorligining tarkibiy qismlari asoslab berilgan. Bular taqdim etilayotgan uy-joy-kommunal xizmatlar sifati, iste'molchilarning uy-joy-kommunal xizmatlardan qoniqish darajasi, aholining hayot sifati va shahar muhitini yaxshilash bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etish darajasi, shaharda xavfsiz hayot masalalari, shahar muhitini yaxshilash uchun yangi ijtimoiy obyektlar qurish zarurati, investitsiya loyihalash yechimlarini amalga oshirish darajasi, ko'p qavatli uylarni boshqarishni tashkil etish va boshqalardan iborat.

Biroq, D. R. Batkeyeva, S. N. Ulakov, Z. N. Borbasova, R. A. Abramov "Problems of attracting investment in housing and communal services" [5] nomli maqolada uy-joy va kommunal xo'jalik sohasida asosiy vositalarni modernizatsiya qilish va ularning takror ishlab chiqarilishini ta'minlash uchun investitsiyalarni jalb etish muammolarini tahlil qilgan. Tadqiqotda investitsiya faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar, jumladan, narx belgilash siyosati, subsidiyalarning o'z vaqtida ajratilmasligi hamda imtiyozlar tizimidagi nomutanosibliklar yoritib berilgan. Xorijiy tajriba asosida xususiy kapitalni jalb etishning samarali mexanizmlari, xususan, konsessiya shartnomalarining ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, uy-joy va kommunal xizmatlar tarkibi hamda ularning mazmuni umumlantirilib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash orqali investitsiya muhitini yaxshilash zarurligi asoslab beriladi.

Mahalliy olimlarimizdan yana bir olim D. A. Berdiyeva ham o'z izlanishlarida uy-joy fondi boshqaruvini samarali tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi. Demak, olimaning asosiy fikrlari uy-joy kommunal xizmatlar sohasini boshqarish masalalariga qaratilgan [6]. Bundan tashqari, E. V. Sultanovanning fikriga ko'ra, "uy-joy" tushunchasi "uy-joy fondi" va "turar-joy" tushunchalari bilan bevosita bog'liq [7]. T. A. Xasanov bu borada "Uy-joy kommunal xo'jaligining eng muhim xususiyati uning yuqori ijtimoiy ahamiyati bo'lib, aholining barcha qatlamlarining hayot sifati va jamiyatdagi ijtimoiy iqlim uning samarali ishlashiga bog'liq", — deb ta'rif bergan [8]. Biroq, Sh. A. Yuldosheva "Mintaqada uy-joy siyosatining mohiyati" [9] nomli maqolasida uy-joy siyosati, uy-joy kommunal xo'jaliklarining faoliyati, xizmatlar turlari, kommunal xo'jaliklarning samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar hamda ularning asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi fikrlarni bayon etgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur muammo bir qator tadqiqot usullaridan foydalanish asosida o'rganilgan bo'lib, jumladan, xorijiy tajribalarni monografik tahlil qilish, analiz va sintez, tizimli tahlil kabi iqtisodiy usullar qo'llanilgan. Ushbu yondashuvlar innovatsion texnologiyalar asosida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish taraqqiyoti bo'yicha ichki imkoniyatlarni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahonda globallashuv va integratsiya jarayonlarining rivojlanishi, raqobatning keskinlashuvi, xizmatlar ko'rsatish darajasining samaradorligini oshirish hamda sifat ko'rsatkichlarining ustuvorligini ta'minlash bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimi aholi turmush darajasi va sifatini ta'minlashning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, xizmatlar samaradorligini oshirish sohaning asosiy maqsadlaridan biridir.

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi eng muhim sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu tizim aholini ichimlik suvi, issiqlik energiyasi, elektr ta'minoti, gaz,

kanalizatsiya, chiqindilarni olib chiqish va obodonlashtirish kabi zarur xizmatlar bilan uzluksiz ta'minlash orqali fuqarolarning kundalik hayot faoliyatini ta'minlaydi. Shu sababli, uy-joy kommunal xizmatlarining mavjudligi va samarali faoliyati aholi turmush sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur soha nafaqat ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, balki mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi infratuzilmaviy asos vazifasini ham bajaradi.

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishning zaruriyati, avvalo, aholi salomatligini saqlash va xavfsiz yashash muhitini yaratish bilan bevosita bog'liqdir. Toza ichimlik suvi, sanitariya va kanalizatsiya tizimlarining samarali ishlashi yuqumli kasalliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Issiqlik va elektr ta'minotining uzluksizligi esa aholi yashash sharoitining qulayligini oshirib, ijtimoiy norozilik va turli favqulodda holatlarning oldini oladi. Shu bilan birga, kommunal xizmatlar sifati past bo'lgan hududlarda migratsiya jarayonlarining kuchayishi, ijtimoiy tengsizlikning ortishi kabi salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Mazkur sohaning ahamiyati iqtisodiy nuqtayi nazardan ham juda yuqoridir. Uy-joy kommunal infratuzilmasining rivojlanganligi sanoat, xizmatlar va tadbirkorlik subyektlarining samarali faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Elektr energiyasi, suv va issiqlik ta'minotisiz ishlab chiqarish jarayonlarini barqaror tashkil etish imkonsizdir. Shu bois, kommunal xizmatlar tizimiga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ham multiplikativ samara keltiradi, yangi ish o'rinlari yaratilishiga va hududlarning kompleks rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishning ijtimoiy ahamiyati aholining turmush darajasi va hayot sifati bilan chambarchas bog'liq. Zamonaviy va ishonchli kommunal xizmatlar aholining vaqt va mablag' tejallishiga, kundalik hayotdagi noqulayliklarning kamayishiga olib keladi. Bu esa aholining mehnat unumdorligi, ijtimoiy faolligi va davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Ayniqsa, urbanizatsiya jarayonlari jadallashayotgan sharoitda uy-joy kommunal xizmatlarini takomillashtirish strategik ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval. Davlat dasturlari asosida uy-joy va kommunal xizmatlar sohasini rivojlantirish ko'rsatkichlari[10]

Dastur nomi	Asosiy yo'nalish	Ajratilgan mablag' (mlrd so'm)	2025-yil ijrosi	Asosiy natija ko'rsatkichlari
Hududlarning bosh rejalari va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturi	Shahar va qishloq hududlarini rejalashtirish	264,1	98,6 %	231 ta shaharsozlik hujjati ishlab chiqildi, 6 ta shaharning bosh rejasiga tuzatish kiritildi
Shaharsozlik faoliyati normativ hujjatlarini takomillashtirish dasturi	Normativ-huquqiy bazani modernizatsiya qilish	35,2	100 %	Milliy shaharsozlik normalari xalqaro standartlarga moslashtirildi
Issiqlik ta'minoti obyektlarini qurish va modernizatsiyalash dasturi	Issiqlik infratuzilmasini rivojlantirish	660,6	97,3 %	22 ta qozonxona modernizatsiya qilindi, 14 758 ta xonadon issiqlik bilan ta'minlandi
Issiqlik ta'minoti korxonalarida ta'mirlash dasturi	Issiqlik tarmoqlari va qozonxonalarni ta'mirlash	1,05	100 % (moliyaviy)	Moliyalashtirish bajarilgan, ammo jismoniy ishlar to'liq amalga oshirilmagan
Ko'p kvartirali uylarning elektron pasportlarini yaratish dasturi	Uy-joy fondini raqamlashtirish	29,95	99,8 %	6 957 ta ko'p kvartirali uyning elektron pasporti yaratildi

Mazkur jadvaldan ko'rinadiki, davlat dasturlari doirasida uy-joy kommunal xizmatlar sohasini rivojlantirishga katta hajmda budget mablag'lari yo'naltirilgan. Ayniqsa, issiqlik ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish va uy-joy fondini raqamlashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Dasturlar ijrosining yuqori foizda bajarilishi aholiga ko'rsatilayotgan kommunal xizmatlar sifati va barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Uy-joy va kommunal xizmatlar sohasida davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatning ustuvor yo'nalishlari, moliyalashtirish hajmi va erishilgan natijalarni kompleks baholash imkonini beradi. Jadvaldagi dasturlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2025-yilda mazkur soha davlat budjeti xarajatlarida muhim o'rin egallab, hududiy rivojlanish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan aniq maqsadlar bilan moliyalashtirilgan.

Hududlarning bosh rejalari va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish uy-joy kommunal xizmatlarining barqaror faoliyati uchun asosiy rejalashtirish poydevorini yaratishga xizmat qiladi. Dastur ijrosining 98,6 foizni tashkil etgani rejalashtirish jarayonlari deyarli to'liq amalga oshirilganini ko'rsatadi. Shahar va qishloq aholi punktlari bo'yicha shaharsozlik hujjatlarining ishlab chiqilishi kommunal infratuzilmani joylashtirish, muhandislik



tarmoqlarini rivojlantirish va uy-joy fondini samarali boshqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shu bilan birga, ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha reja to'liq bajarilmagani kelgusida qo'shimcha moliyalashtirish va institutsional choralarni talab etishini anglatadi.

Shaharsozlik faoliyati sohasidagi normativ hujjatlarni takomillashtirish sifat jihatidan muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning 100 foiz ijro etilgani normativ-huquqiy bazaning mustahkamlanishini bildiradi. Milliy shaharsozlik normalarining xalqaro standartlarga uyg'unlashtirilishi uy-joy va kommunal xizmatlar sohasiga xususiy investitsiyalarni jalb qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu dastur bevosita moddiy obyektlar yaratmasa-da, u boshqa dasturlar samaradorligini ta'minlovchi institutsional asos vazifasini bajaradi.

Issiqlik ta'minoti obyektlarini qurish va modernizatsiyalash jadvaldagi eng yirik moliyaviy hajmga ega dastur bo'lib, uning ijrosi 97,3 foizni tashkil etgan. Bu holat davlatning aholini barqaror issiqlik bilan ta'minlashni strategik vazifa sifatida belgilaganini ko'rsatadi. Minglab xonadonlarning issiqlik ta'minoti bilan qamrab olinishi uy-joy kommunal xizmatlarining ijtimoiy ahamiyatini oshirib, aholining turmush sifati va yashash sharoitlarini yaxshilashga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, reja va ijro o'rtasidagi farq moliyaviy va texnik risklar mavjudligini ham ko'rsatib, tizimni yanada samarali boshqarish zarurligini anglatadi.

Ko'p kvartirali uylarning elektron pasportlarini yaratish raqamlashtirish yo'nalishida muhim qadam bo'lib, 99,8 foizlik ijro ko'rsatkichi bilan ajralib turadi. Elektron pasportlarning joriy etilishi uy-joy fondining texnik holatini doimiy monitoring qilish, ta'mirlash ehtiyojlarini aniq belgilash va boshqaruv qarorlarini asosli qabul qilish imkonini beradi. Bu esa uzoq muddatda kommunal xizmatlar samaradorligini oshirish va budjet mablag'laridan maqsadli foydalanishga xizmat qiladi.

Uy-joy kommunal xizmatlarini zamonaviy yo'llar bilan tashkil etishning samaradorligini o'rganish natijalari ko'rsatadiki, texnologik yangiliklar xizmat sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va yuqoridagi davlat dasturlari asosida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishni zamonaviy yo'llari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak.

- Raqamli hisob-kitob tizimlarining samaradorligi. Elektron hisob-kitob tizimlari va onlayn to'lov platformalari xizmat ko'rsatish jarayonini shaffof va tezkor qiladi. Xususan, to'lovlarni avtomatik qayd qilish orqali xatoliklar 80% ga kamayadi. Shuningdek, aholiga xizmatlar bo'yicha real vaqtda ma'lumot berish imkoniyati mavjud bo'lib, bu shikoyatlarni kamaytiradi va mijozlarning ishonchini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli hisob-kitob tizimlari joriy qilingan hududlarda abonentlarning xizmatlardan qoniqish darajasi o'rtacha 25–30% ga oshgan [11].

- Aqlli uy tizimlarining ahamiyati. Aqlli uy tizimlari orqali uy-joy infratuzilmasidagi energiya, suv va gaz resurslari optimal tarzda boshqariladi. Xususan, aqlli termostatlar isitish tizimida energiya sarfini 20–35% ga kamaytiradi [12], suv oqimi sensorlari esa suvni behuda ishlatishning oldini oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aqlli uy tizimlari joriy qilingan xonadonlarda kommunal xizmatlar uchun o'rtacha xarajatlar 15–25% ga kamaygan, shuningdek, aholi turmush darajasi va qulayligi sezilarli darajada oshgan.

- Mobil ilovalar va onlayn platformalarning roli. Mobil ilovalar orqali aholining xizmatlardan foydalanish jarayoni sezilarli darajada soddalashtiriladi. Ilovalar orqali shikoyatlarni yuborish, xizmatlar bo'yicha ariza topshirish va xizmatlar to'g'risida ma'lumot olish imkoniyati mavjud. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mobil platformalardan foydalangan foydalanuvchilar xizmatdan qoniqish darajasini 30–40% ga yuqori baholagan. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish tashkilotlari uchun ushbu platformalar orqali xizmat monitoringi osonlashadi va xizmat sifatini real vaqtda tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

- IoT (Internet of Things) texnologiyasining samarasi. IoT qurilmalari uy-joy infratuzilmasida nosozliklarni aniqlash va resurslarni optimallashtirish imkonini beradi. Xususan, suv quvurlaridagi oqishlarni aniqlash tizimi suv yo'qotilishini 40–50% ga kamaytiradi [13], elektr energiyasi monitoringi esa ortiqcha iste'molning oldini oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, IoT texnologiyalari joriy qilingan hududlarda favqulodda holatlar bo'yicha xizmatga bo'lgan murojaatlar 25% ga kamaygan va xizmat tezkorligi sezilarli darajada oshgan.

- Uy-joy fondini raqamlashtirish va elektron pasportlashtirish. Ko'p kvartirali uylarning elektron pasportlarini yaratish orqali uy-joy fondining texnik holatini doimiy monitoring qilish, ta'mirlash ehtiyojlarini aniq belgilash va boshqaruv qarorlarini asosli qabul qilish. 2025-yilda 6 957 ta ko'p kvartirali uyning elektron pasporti yaratilgan (99,8% ijro). Bu uzoq muddatda kommunal xizmatlar samaradorligini oshirish va budjet mablag'laridan maqsadli foydalanishga xizmat qiladi [10].

- Issiqlik ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish. Issiqlik infratuzilmasini rivojlantirish va zamonaviylashtirishga katta hajmda investitsiyalar yo'naltirish (660,6 mlrd so'm). 22 ta qozonxona modernizatsiya qilindi, 14 758 ta xonadon issiqlik bilan ta'minlandi. Bu aholini barqaror issiqlik bilan ta'minlashni strategik vazifa sifatida amalga oshirish, turmush sifati va yashash sharoitlarini yaxshilashga bevosita ta'sir ko'rsatadi [10].

Umuman olganda, uy-joy kommunal xizmatlarini zamonaviy yo'llar bilan ta'minlash resurslardan samarali foydalanish, xizmat sifatining oshishi va shaffoflikning ta'minlanishi, favqulodda vaziyatlarga tezkor javob berish



imkoniyati, aholining xizmatlardan qoniqish darajasining oshishi va iqtisodiy xarajatlarni kamaytirish hamda budjetni tejash afzalliklarini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimi jamiyatning barqaror rivojlanishi, aholi farovonligi va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu sohani modernizatsiya qilish, xizmatlar sifati va boshqaruv samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u uzoq muddatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, uy-joy kommunal xizmatlarini zamonaviy yo'llar bilan ta'minlash resurslardan samarali foydalanish, xizmat sifatining oshishi va shaffoflikning ta'minlanishi, favqulodda vaziyatlarga tezkor javob berish imkoniyati, aholining xizmatlardan qoniqish darajasining oshishi hamda iqtisodiy xarajatlarni 20–30% ga kamaytirish kabi muhim afzalliklarni beradi. Shu sababli, uy-joy kommunal xizmatlar sohasida raqamli transformatsiya jarayonlarini davom ettirish, xususiy sektorni jalb qilish, xalqaro tajribadan foydalanish va xodimlar malakasini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish zarur. Bu esa uzoq muddatli istiqbolida aholi turmush sifatini tubdan yaxshilash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va mamlakatning barqaror rivojlanishiga muhim hissa qo'shishga xizmat qiladi.

Yuqoridan kelib chiqib, quyidagi takliflar keltirilgan:

Birinchidan, elektron hisob-kitob, mobil ilovalar va onlayn platformalarni joriy etish;

Ikkinchidan, aqlli texnologiyalarni keng ko'lamda tatbiq etish, ya'ni IoT qurilmalari, aqlli hisoblagichlar va energiya tejovchi tizimlarni o'rnatish;

Uchinchidan, kadrlar malakasini oshirish va xalqaro tajribadan foydalanish, mutaxassislarni qayta tayyorlash va rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish;

To'rtinchidan, investitsiya muhitini yaxshilash va xususiy sektorni jalb qilish, konsessiya shartnomalarini kengaytirish, grant va subsidiya dasturlarini ishlab chiqish;

Beshinchidan, monitoring va baholash tizimini takomillashtirish orqali yagona elektron platformani yaratish va xizmat sifatini doimiy baholash mexanizmini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/acts/-3170224>
2. Oksana Skripnik "Increase in competitiveness of housing-andcommunal services" IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 90 (2017) 012144 doi :10.1088/1755-1315/90/1/012144 <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/90/1/012144/pdf>
3. Angela Mottaeva va Anzhelika Borisova "Improvement of quality of housing-and-communal services management" International Scientific Conference "Construction and Architecture: Theory and Practice for the Innovation Development" (CATPID-2019) Volume 138, 2019 Environmental Economics and Management DOI <https://doi.org/10.1051/e3sconf/201913802015> Published online 16 December 2019 https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2019/64/e3sconf_catpid18_02015/e3sconf_catpid18_02015.html
4. Urpash Shalbolova, Zarina Chikibayeva, Saule Yegemberdiyeva and Yevgeniy Kim "Housing and communal services as a factor of the urban sustainability" E3S Web Conf. Volume 208, 2020 First Conference on Sustainable Development: Industrial Future of Territories (IFT 2020) https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2020/68/e3sconf_ift2020_04013/e3sconf_ift2020_04013.html
5. D.R.Batkeyeva, S.N.Ulakov, Z.N.Borbasova, R.A.Abramov "Problems of attracting investment in housing and communal services" BUKETOV BUSINESS REVIEW, Vol. 102 No. 2 (2021) 102(2), 43–55. DOI: <https://doi.org/10.31489/2021ec2/43-55> online aviable: <https://bbr.buketov.edu.kz/index.php/economy-vestnik/article/view/193>
6. Berdiyeva Dilfuza Axatovna.Uy-joy fondi boshqaruvini samarali tashkil etish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, 2023-yil, oktyabr. No 10-son. https://www.researchgate.net/publication/376431604_UY-JOY_FONDI_BOSHQARUVINI_SAMARALI_TASHKIL_ETISH
7. Е.В.Султанова, Я.А.Волынчук; Владивостокский государственный университет экономики и сервиса. Основы функционирования ЖКХ: учебное пособие / – Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2017. – 88 с. <https://cyberleninka.ru/article/n/predprinimatelskaya-deyatelnost-v-sfere-zhkh-s-privlecheniem-na-okazanie-rabot-i-uslug-fsin>
8. Khasanov T.A. Housing fund as an object of management. Tashkent, 2017. TAQI. Toshkent 2022 y. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/89>
9. Yuldosheva Shahribonu Anvar qizi "Mintaqada uy-joy siyosatining mohiyati" April 2024 International Journal of Economics and Innovative Technologies 12(2):60-67 DOI: 10.55439/EIT/vol12_iss2/a7 https://www.researchgate.net/publication/385165420_MINTAQADA_UY-JOY_SIYOSATINING_MOHIYATI
10. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan rivojlantirish dasturlari va byudjet xarajatlarini maqsadli indikatorlarining 2025-yil ijrosi bo'yicha hisoboti https://api-portal.gov.uz/uploads/14/2026/01/15/108907a4-0f74-1703-9dcb-98935860fc72_media_.pdf



11. Why Every Utility Needs a Mobile Application <https://mindgrub.com/blog/utility-mobile-application/>
12. The Smart Revolution: Transform Energy Savings with Key Smart Home Statistics <https://www.meteorelectrical.com/blog/smart-home-energy-saving-statistics.html>
13. Smart Water Solutions: How IoT Detects Leaks and Boosts City Budgets <https://smartplanninganddesign.com/news/smart-water-solutions-how-iot-detects-leaks-and-boosts-city-budgets>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100